

*Samatov Ulug'bek,*

*O'zbekiston Respublikasi  
Oliy Majlisi Qonunchilik  
palatasi deputati  
Innovatsion rivojlanish,  
axborot siyosati va axborot  
texnologiyalari masalalari  
qo'mitasi a'zosi*

## «Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaroriga munosabat

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 4-oktabrdagi «Saylov jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3961-son Qarori mamlakatimizda bo'ladigan saylov tizimiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilishni ta'minlash, shuningdek, saylov jarayonlarini boshqarishda axborot tizimini joriy qilish kabi maqsadlarda qabul qilingani bilan ham ahamiyatlidir.

2017-yil dekabr oyida Toshkent shahrida — xalq deputatlari tuman Kengashlariga bo'lib o'tgan saylovlar davomida qatnashganligim sababli Yashnobod tumanida, o'z tajribamda sinovdan o'tkazildi. Asos bo'ldi, deyishimizning sababi bunga urinish biroq avvalroq boshlangan.

Prezidentimiz tomonidan imzolangan qaror — saylovchilarning yagona elektron ro'yxatini joriy qilishga yo'naltirilgan saylov jarayonini boshqarish axborot tizimini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi. To'g'rirog'i, saylovchining yagona elektron ro'yxatga kiritilishi — fuqaroning aniq manzili ro'yxatga olinishi bilan birgalikda, bir saylovchining bir nechta ro'yxatga kirib qolishi, o'zi yashash joyi bir joyda bo'lib, ro'yxatda boshqa manzilda yashashi, buning oqibatida, «Bir saylovchi — bitta ovoz» tamoyiliga rioya etilmagani kuzatildi.

Bugungi joriy holat, ya'ni saylovchi-fuqarolarning doimiy va vaqtincha yashash joylari to'g'risidagi ishonchli bo'lmagan axborot, fuqarolarni saylovchilarning tegishli ro'yxatlariga avtomatik kiritganda, aniqlik kasb etmaydi va o'z navbatida, turli chalkashliklar tug'diradi.

Yana bir muammo shundaki, ko'chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestrining yo'qligi, shuningdek, bunday obyektlar yagona reyestridagi eskirib ketgan ma'lumotlar va unifikatsiyalashtirilmagan, xalqona tilda aytganda, bir idoradagi ma'lumot bilan ikkinchisi solishtirilmagan holatning mavjudligi — saylovchi uchun ham, komissiya a'zolari uchun ham noqulaylik tug'dirib kelgan. Shu bilan birga, ayni kunlarda mamlakatimizda mavjud internet sifatining ahvoli ham ko'pchilikni qoniqtirmaydi. Bu saylov jarayoniga AKT'ni joriy etishda eng xavfli to'siqlardan biridir.

Prezidentimiz tomonidan imzolangan qaror — saylovchilarning yagona elektron ro'yxatini joriy qilishga yo'naltirilgan saylov jarayonini boshqarish axborot tizimini yaratishga asos bo'lib xizmat qiladi, ayniqsa, «Elektron hukumat to'g'risida»gi Qonunning mamlakatimizda ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy sohalarida olib borilayotgan izchil islohotlarda samarali ijro etilishida muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyat hayotini demokratishtirish, davlat organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda. 